

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA TA'LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Fizika-matematika fakulteti

“Axborot texnologiyalari” kafedrası

Jo'raqulov Jasur Javhar o'g'lining

**C++ dasturlash tilida statik ma'lumotlar tuzilmalari mavzusida
interaktiv o'quv materiallar yaratish mavzusida**

5111018- “Kasb ta'limi: Informatika va axborot texnologiyalari” ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Ish ko'rildi va himoyaga ruxsat berildi” **Ilmiy rahbar** ___ **I.O.Jalolov**

« ___ » _____ **2018 y.**

Kafedra mudiri

Taqrizchi _____

_____ **dots.T.B.Boltayev**

« ___ » _____ **2018 y.**

« ___ » _____ **2018 y.**

«Himoya qilishga ruxsat berildi»

Fakultet dekani **prof.Sh.M.Mirzayev**

« ___ » _____ **2018 y.**

Buxoro-2018

Mundarija.

KIRISH	3
I BOB. C++ DASTURLASH TILIDA STATIK MA'LUMOTLAR TUZILMASI	7
1.1. C++ dasturlash tilida asosiy operatorlar.	7
1.2. C++ dasturlash tilida massivlar.	23
1.3. C++ dasturlash tiliga satrlar.	30
Xulosa	36
II BOB. STATIK MA'LUMOTLAR TUZILMASI BO'YICHA INTERAKTIV O'QUV MATERIALLAR TAYYORLASH	37
2.1. Interaktiv o'quv materiallarini tayyorlashga foydalanilgan dasturlar	37
2.2. Interaktiv o'quv materiallar.	58
Xulosa	65
Xotima	65
Adabiyotlar:	66

KIRISH

“O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining o‘lmas g‘oyalari, fikr, ko‘rsatmalari bizning qalbimiz va ongimizga shunday chuqur singib ketganki, ular bizning kelajak sari qat‘iyat bilan borishimizda barchamizga doimo tayanch va suyanch bo‘lishi muqarrar”.

Shavkat Mirziyoyev.

Bugun prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning sa‘y-harakatlari natijasida jamiyatimizning ko‘plab sohalarida yana-da ko‘proq yuksalishlar, o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Sir emaski, ushbu rivojlanishlarning asosida xalq manfaati, el-u yurt ravnaqi yotadi. Ma‘lumki, jamiyatimizning rivojlanish strategiyalarining amalda keng ko‘lamli bajarilishini ta‘minlovchi shaxslar – bu rahbarlardir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ilk «Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak» nomidagi kitobi ham aynan shunday rahbarlar haqidadir.

Hozirgi kunda respublikamizdagi barcha oliy o‘quv yurtlarida “Informatika va axborot texnologiyalari” yo‘nalishi va mutaxassisliklariga turli xil dasturlash tillarini o‘rgatish mo‘ljallangan. Bizga ma‘lumki, dasturlash tillarining o‘ndan ortiq ko‘rinishlari mavjud, lekin qo‘llanilishi ko‘lamiga qarab C++ va C# dasturlash tillari yuqori dasturlash sinfiga mansubdir. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra C++ dasturlash tili Assembler dasturlash tiliga eng yaqin bo‘lib, tezlik jihatidan 10 % ortda qolar ekan. Keyingi yillarda amaliy dasturchilarga juda ko‘p integratsion dastur tuzish muhitlari taklif etilmoqda. Bu muhitlar u yoki bu imkoniyatlari bilan bir–biridan farq qiladi. Aksariyat dasturlashtirish muhitlarining fundamental asosi C++ tiliga borib taqaladi. Ushbu kurs ishida hozirgi kunda kompyuterda berilgan funksiyalarni grafigini va har xil ko‘rinishdagi shakllarni chizish va ularni aniq koordinatalarini aniqlash, ekranni grafik rejimga o‘tkazish va undagi mavjud piksel va ranglardan foydalanish kabi vazifalarni o‘rganishga olib keladi.

Hozirgi vaqtga kelib komp`yuter olamida ko‘plab dasturlash tillari mavjud. Paskal, C++ va boshqa dasturlash tillaridir. C++ dasturlash tili universal

tildir. U UNIX sistemasi bilan bogʻlangan boʻlib, bu sistemada ishlatiladigan bir qancha dasturlar C++ tilida yozilgan. Paskal tili 1969 yil N. Virt tomonidan yaratilgan boʻlib, keyinchalik amerikaning Borland firmasi tomonidan qayta ishlandi va uni Turbo Pascal deb nomlangan. C++ Denis Ritchi tomonidan 1972 -yili UNIX tipidagi operatsion sistemalarini yaratish uchun loyihalashtirilgan. Turbo Pascal ni qayta ishlash natijasida ob'ektli dasturlash yoʻlga qoʻyildi va 1995 yilda Borland kompaniyasi guruxi dastur tuzuvchilari Chuck va Denny tomonidan Windows uchun moʻljallangan dasturlash muxiti Borland Delphi dasturlash vositasi yaratildi. Borland C++ va Delphi dasturlash tili Windows uchun moʻljallangan boʻlib, uning birinchi versiyasi Windows operatsion sistema qobigʻida ishlagan. Borland C++ va Delphi dasturlash tili – bu dasturlarni qayta ishlash muxiti boʻlib, Windows operatsion sistemasida ishlaydi. Unda ob'ektli dasturlash tillari boʻlgan Object mujassamlashgan. Borland C++ va Delphi vizual proektlar, turli xolat protseduralarini qayta ishlash va dasturlarni qayta ishlashda vaqtdan yutish va boshqalarni oʻz ichiga oladi.

Men ham ushbu BMI davomida C++ tilida matn muxarriri bilan ishlovchi obektlarga moʻljallangan dasturni tuzib chiqmoqchiman. Ushbu dastur kichik dastur boʻlsada kelajakda boshqa dasturlar tuzishim uchun fundament vazifasini bajarishga harakat qilaman. Chunki hozirgi kunda matnlar bilan ishlash uchun katta dasturlar paketini oʻrnatish, agar oʻzida ishlaydigan dasturni ishlatsak oʻzimizni sof tilda emas boshqa davlat tillarida ishlashi noqulayliklar tugdiradi. Shuning uchun kichik matn muxarrirlari bilan ishlovchi dastur ishlab chiqaramiz

Bu dasturni tuzib nafaqat yozishni amalga oshirish balki kichik matnlar ustida taxrirlash va dasturni ishlashni bilmaydigan foydalanuvchi ham bir koʻrinishda tushinadigan tushinarli, bejirm koʻrinishga ega dastur tuzmoqchiman.

Men bu dasturni tuzib obektlar yaratishni va ular orqali shunga oʻxshash yana boshqa obektlar yaratmoqchiman bu dasturda ishlashimga yana bir sabab boshqa obektlarga moʻljallanmagan dasturlash tillarida faqat masalani matematik dasturi tuzib natija olinadi bunda yani C++ Builderda esa boshqa imkoniyatlar va kampanentalar bilan ham ishlashni oʻrganmochimiz .

Mavzuning dolzarbligi. C++ dasturlash tilida statik ma'lumotlar tuzilmalari bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va ulardan qanday foydalanish bo'yicha mustaqil o'rganuvchilarga interaktiv o'quv materiallari orqali o'rgatish. Bunday interaktiv o'quv materiallar mavzuni o'rganishda mustaqil o'rganuvchilarga juda katta yordam beradi. Bunday jarayonda mustaqil o'rganuvchilar kerakli mavzuni o'rganib, bu mavzu bo'yicha topshiriqlarni interaktiv bajarib boradilar.

Bitiruv malakaviy ishimizning maqsad va vazifalari. C++ dasturlash tilida statik ma'lumotlar tuzilmalarini o'rganish, interaktiv o'quv materiallarini tayyorlashda foydalaniladigan dasturiy taminotlarni o'rganish. Shular asosida interaktiv o'quv materiallarini tayyorlash.

Bu maqsadga erishish uchun quyidagi masalalarni yechish kerak:

- C++ dasturlash tilini o'rganish;
- Statik ma'lumotlar tuzilmalarini o'rganish;
- Interaktiv o'quv materiallarini tayyorlashni o'rganish;

Bitiruv malakaviy ishimizning o'rganilganlik darajasi. Interaktiv o'quv materiallarini tayyorlashdan oldin C++ dasturlash tili, statik ma'lumotlar tuzilmalari va interaktiv o'quv materiallarini tayyorlashda foydalaniladigan dasturiy taminotlar o'rganib chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishimizning predmeti. C++ dasturlash tili, statik ma'lumotlar tuzilmalari va interaktiv o'quv materiallarini tayyorlashda foydalaniladigan dasturiy taminotlar asosiy predmet hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning obykti sifatida "Obyektga yo'naltirilgan dasturlash", "Dasturlash asoslari" fanlari olindi.

Bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy farazi ta'lim jarayonini yanada takomillashtirishning yangi usul va vositalarini yaratish, o'quv jarayonini samaradorligini oshirish. Interaktiv o'quv materiallarini tayyorlash usul va metodlari.

Bitiruv malakaviy ishimizning yangiligi. C++ dasturlash tilida statik ma'lumotlar tuzilmalari o'rganish bo'yicha interaktiv o'quv materiallarini

tayyorlash va o'quv jarayoniga qo'llash bitiruv malakaviy ishimning yangiligi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning amaliy ahamiyati shundan iboratki, bu interaktiv o'quv materiallaridan C++ dasturlash tilini o'rganishda va o'quv jarayonida foydalanilsa, ta'lim oluvchilar mustaqil, erkin va ixtiyoriy bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa o'zining yuqori samarasini beradi deb o'ylayman.

Bitiruv malakaviy ishimizning metodologik asosini uning tarkibiy qismi, undagi o'quv va didaktik vositalarning jamlanganligidir. Bu dars jarayonini interfaol tashkil etishda ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning metodlari. C++ dasturlash tilida statik ma'lumotlar tuzilmalarini o'rganishda foydalanilgan interaktiv o'quv materiallarini yaratishda ishlab chiqilgan metodlar.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va hajmi quyidagicha. Kirish, 2 ta bob, har bir bobning qisqacha xulosasi, adabiyotlar ro'yxati, xotimadan iborat bo'lib jami 65 betga bayon qilingan. I- bobda C++ dasturlash tilida statik ma'lumotlar, II- bobda Statik ma'lumotlar tuzilmasi bo'yicha interaktiv o'quv materiallar tayyorlash Kirish qismi 6 betdan iborat , tushuntirish qismi 57 betdan iborat. Bitiruv malakaviy ishida 12 ta adabiyotdan foydalanildi.

I BOB. C++ DASTURLASH TILIDA STATIK MA'LUMOTLAR TUZILMASI.

1.1. C++ dasturlash tilida asosiy operatorlar.

Birinchi elektron hisoblash mashinalari paydo bo`lishi bilan dasturlash tillari evolyutsiyasi boshlanadi. Dastlabki kompyuterlar ikkinchi jahon urushi vaqtida artilleriya snaryadlarining harakat traektoriyasini hisob-kitob qilish maqsadida qurilgan edi. Oldin dasturchilar eng sodda mashina tilini o`zida ifodalovchi kompyuter komandalari bilan ishlaganlar. Bu komandalar nol va birlardan tashkil topgan uzun qatorlardan iborat bo`lar edi. Keyinchalik, insonlar uchun tushunarli bo`lgan mashina komandalarini o`zida saqlovchi (masalan, ADD va MOV komandalari) assembler tili yaratildi. Shu vaqtlarda BASIC va COBOL singari yuqori sathli tillar ham paydo bo`ldiki, bu tillar tufayli so`z va gaplarning mantiqiy konstruktsiyasidan foydalanib dasturlash imkoniyati yaratildi. Bu komandalarni mashina tiliga interpretatorlar va kompilyatorlar ko`chirar edi. Interpretator dasturni o`qish jarayonida uning komandalarini ketma - ket mashina tiliga o`tkazadi. Kompilyator esa yaxlit programma kodini biror bir oraliq forma - obyekt fayliga o`tkazadi. Bu bosqich kompilyatsiya bosqichi deyiladi. Bundan so`ng kompilyator obyektli faylni bajariluvchi faylga aylantiradigan kompanovka dasturini chaqiradi.

Interpretatorlar bilan ishlash osonroq, chunki dastur komandalari qanday ketma - ketlikda yozilgan bo`lsa shu tarzda bajariladi. Bu esa dastur bajarilishini nazorat qilishni osonlashtiradi. Faqatgina kompilyatsiya qilingan fayl tezroq bajariladi, chunki bundagi komandalar kompilyatsiya jarayonida mashina tiliga o`tkazilgan bo`ladi.

C++ kabi kompilyatsiya qiluvchi dasturlash tillarini yana bir afzalligi hosil bo`lgan dastur kompyuterda kompilyatorsiz ham bajarilaveradi. Interpretatsiya qiluvchi tillarda esa tayyor dasturni ishlatish uchun albatta mos interpretator dasturi talab qilinadi.

Ayrim tillarda (masalan, VISUAL BASIC) interpretator rolini dinamik kutibxonalar bajaradi. Java tilining interpretatori esa virtual mashinadir (Virtual Machine, yoki VM). Virtual mashinalar sifatida odatda brouzer (Internet Explorer yoki Netscape) lar qo`llaniladi.

Ko`p yillar davomida dasturlarning asosiy imkoniyati uning qisqaligi va tez bajarilishi bilan belgilanar edi. Dasturni kichikroq qilishga intilish kompyuter xotirasini juda qimmatligi bilan bog`liq bo`lsa, uning tez bajarilishiga qiziqish protsessor vaqtining qimmatbaholigiga bog`liq edi. Lekin kompyuterlarning narxi tushishi bilan dastur imkoniyatini baholash mezoni o`zgardi. Ekspluatatsiyaning oddiyligi, konkret masalani yechish bilan bog`liq bo`lgan talabni ozroq o`zgarishiga, dasturni ortiqcha chiqimlarsiz oson moslashtirish bilan izohlanadi.

C++ tilida ifodalar biror bir hisoblash natijasini qaytaruvchi boshqa ifodalar ketma-ketligini boshqaradi yoki hech nima qilmaydi (nol ifodalar).

C++ tilida barcha ifodalar nuqtali vergul bilan yakunlanadi. Ifodaga misol qilib o`zlashtirish amalini olish mumkin.

```
x=a+b;
```

Algebradan farqli ravishda bu ifoda $x = a + v$ ga teng ekanligini anglatmaydi. Bu ifodani quyidagicha tushinish kerak:

a va v o`zgaruvchilarni qiymatlarini yig`ib natijasini x o`zgaruvchiga beramiz yoki x o`zgaruvchiga $a+v$ qiymatni o`zlashtiramiz. Bu ifoda birdaniga ikkita amalni bajaradi, yig`indini hisoblaydi va natijani o`zlashtiradi. Ifodadan so`ng nuqtali vergul qo`yiladi. (=) operatori o`zidan chap tomondagi operandga o`ng tomondagi operandlar ustida bajarilgan amallar natijasini o`zlashtiradi.

Bo`sh joy (probel) belgisi.

Bo`sh joy belgilariga nafaqat probel, balki yangi satrga o`tish va tabulyatsiya belgilari ham kiradi. Yuqorida keltirilgan ifodani quyidagicha ham yozish mumkin:

```
x = a+b;
```

Bu variantda keltirilgan ifoda ko`rimsiz va tushunarsiz bo`lsa ham to`g`ridir.

Bo'sh joy belgilari dasturning o'qilishligini ta'minlaydi.

Bloklar va kompleks ifodalar.

Ba'zan dastur tushunarli bo'lishi uchun o'zaro mantiqiy bog'langan ifodalarni blok deb ataluvchi komplekslarga birlashtirish qulaydir. Blok ochiluvchi figurali qavs ({) bilan boshlanadi va yopiluvchi figurali qavs (}) bilan tugaydi. Blok ochilganda va yopilganda nuqtali vergul qo'yilmaydi.

```
{  
    temp= a;  
    a = b;  
    b = temp;  
}
```

Bu blok xuddi bir ifodadek bajariladi, u a va b o'zgaruvchilar qiymatlarini almashtiradi.

Amallar.

Bajarilishi natijasida biror bir qiymat qaytaradigan barcha ifodalar C++ tilida amallar deyiladi. Amallar albatta biror bir qiymat qaytaradi. Masalan, 3+2 amali 5 qiymatni qaytaradi.

Operatorlar.

Operator - bu qandaydir amalni bajarish tug'risida kompilyatorga uzatiladigan literaldir. Operatorlar operandlarga ta'sir qiladi. C++ da operandlar deb alohida literallar va butun ifodalar tushuniladi.

C++ tilida ikki ko'rinishdagi operatorlar bor:

o'zlashtirish operatorlari

matematik operatorlar

O'zlashtirish operatori.

O'zlashtirish operatori (=) o'zidan chap tomonda turgan operand qiymatini tenglik belgisidan o'ng tomondagilarni hisoblangan qiymatiga almashtiradi. Masalan,

```
x = a+b;
```

ifodasi x operandga a va b o'zgaruvchilarni qiymatlarini qo'shishdan hosil bo'lgan natijani o'zlashtiradi.

O'zlashtirish operatoridan chapda joylashgan operand adresli operand yoki l-qiymat (chap-chap so'zidan olingan) deyiladi. O'zlashtirish operatoridan o'ngda joylashgan operand operatsion operand yoki r-qiymat deyiladi.

O'zgarmlar faqatgina r-qiymat bo'lishi mumkin va hech qachon adresli operand bo'la olmaydi, chunki dasturning bajarilishi jarayonida o'zgarmlar qiymatini o'zgartirib bo'lmaydi.

```
35 = x // noto'g'ri!
```

l-qiymat esa r-qiymat bo'lishi mumkin.

Matematik operatorlar.

C++ tilida 5 ta asosiy matematik operatorlar qo'llaniladi: qo'shish (+), ayirish (-), ko'paytirish (*), butun songa bo'lish (\) va modul bo'yicha bo'lish (%) (qoldiqni olish).

Ishorasiz butun sonlarni ayirishda, agarda natija manfiy son bo'lsa g'ayrioddiy natija beradi. Buni misoldan ko'rishimiz mumkin.

Ayirish natijasida butun sonni to'lib qolishiga misol

```
#include <iostream.h >
int main()
{
    unsigned int ayirma
    unsigned int kattaSon = 100;
    unsigned int kichikSon = 50;
    ayirma = kattaSon - kichikSon;
    cout << "Ayirma" << ayirma << " ga teng\n";
    ayirma = kichikSon - kattaSon ;
    cout << "Ayirma" << ayirma << " ga teng\n";
    endl;
    return 0;
}
```

HATIJA:

Ayirma: 50 ga teng.

Shartli operator. Shartli operator ikki ko'rinishda ishlatilishi mumkin:

If (ifoda)

1- operator

else

2- operator

Shartli operator bajarilganda avval ifoda hisoblanadi ; agar qiymat rost ya'ni nol dan farqli bo'lsa 1- operator bajariladi. Agar qiymat yolg'on ya'ni nol bo'lsa va **else** ishlatilsa 2-operator bajariladi. **else** qism har doim eng yaqin **if** ga mos qo'yiladi.

if(n>0)

if(a>b)

 Z=a;

else

 Z=b;

Agar **else** qismni yuqori **if** ga mos qo'yish lozim bo'lsa, figurali qavslar ishlatish lozim.

if(n>0) {

if(a>b)

 z=a;

}

else

 z=b;

Misol tariqasida uchta berilgan sonning eng kattasini aniqlash dasturini ko'ramiz:

```
#include <iostream.h>
```

```
void( )
```

```
{ float a,b,c,max);
```

```
    Cout <<"\n a="; Cin>>a;
```

```
    Cout <<"\n b="; Cin>>b;
```

```

    Cout <<“\n c=”; Cin>>c;
if (a>b)
if (a>c) max=a else max=c;
else
if b>c then max=b else max=c;
    Cout <<“\n” <<max;
}

```

Keyingi misolda kiritilgan ball va maksimal ball asosida baho aniqlanadi:

```

#include <iostream.h>
void main( )
{
    float ball,max_ball,baho);
    Cout<< “\n ball=”; Cin>>(“%f”,&ball);
    Cout<<“\n max_ball=”; Cin>>max_ball;
    d=ball/max_ball;
if (d>0.85) baho=5 else
if (d>75) baho=4 else
if (d>0.55) then baho=3 else baho=2;
    Cout<<“\n baho;
}

```

Kalit bo'yicha tanlash operatori. Kalit bo'yicha o'tish **switch** operatori umumiy ko'rinishi quyidagicha

```

Switch(<ifoda>) {
    Case <1-qiymat>:<1-operator>
        ...
break;
    ...
default: <operator>
    ...
case: <n-operator>;
}

```

Oldin qavs ichidagi butun ifoda hisoblanadi va uning qiymati hamma variantlar bilan solishtiriladi. Biror variantga qiymat mos kelsa shu variantda ko'rsatilgan operator bajariladi. Agar biror variant mos kelmasa **default** orqali ko'rsatilgan operator bajariladi. **Break** operatori ishlatilmasa shartga mos kelgan variantdan tashqari keyingi variantdagi operatorlar ham avtomatik bajariladi. **Default; break** va belgilangan variantlar ixtiyoriy tartibda kelishi mumkin. **Default** yoki **break** operatorlarini ishlatish shart emas. Belgilangan operatorlar bo'sh bo'lishi ham mumkin.

Misol tariqasida bahoni son miqdoriga qarab aniqlash dasturini ko'ramiz.

```
Include <iostream.h>
Int baho;
Cin>> baho;
Switch(baho)
{case 2:Cout <<“\n emon”;break;
case 3:Cout <<“\n urta”;break;
case 4:Cout <<“\n yahshi”;break;
case 5:Cout <<“\n a'lo”;break;
default: Cout <<“\n baho notugri kiritilgan”;
};
}
```

Keyingi misolimizda kiritilgan simvol unli harf ekanligi aniqlanadi:

```
Include <iostream.h>
Int baho; Char c; Cin >> c;
Switch(c)
{case 'a':
case 'u':
case 'o':
case 'i':
Cout <<“\n Kiritilgan simvol unli harf”;break;
default: Cout <<“\n Kiritilgan simvol unli harf emas”;
```

```
};  
}
```

Break operatori. Ba'zihollarda sikl bajarilishini ixtiyoriy joyda to'xtatishga to'g'ri keladi. Bu vazifani break operatori bajarishga imkon beradi. Bu operator darhol sikl bajarilishini to'xtatadi va boshqaruvni sikldan keyingi operatorlarga uzatadi.

Misol uchun o'quvchining n ta olgan baholariga qarab uning o'qish sifatini aniqlovchi dasturini ko'ramiz. Buning uchun dasturda o'quvchining olgan minimal bahosi aniqlanadi

```
#include <iostream.h>  
void main()  
{  
    int i,n,min,p;  
while (1)  
    {Cout<<"Baholar soni="; Cin>>n;};  
if (n>0) break;  
Cout<<"Hato! n>0 bulishi lozim ! \n";  
for (i=1,min=5; i<=n; i++)  
{ cin>>p;  
if (p<2)||(p>5) {min=0; break};  
if (min>p) min=p;  
}  
if (p<2)||(p>5) cout break;  
switch(min)  
case 0:cout<<"Baho noto'g'ri kiritilgan";break;  
case 2:cout<<"Talaba yomon o'qiydi";break;  
case 3:cout<<"Talaba o'rtacha o'qiydi";break;  
case 4:cout<<"Talaba yaxshi o'qiydi";break;  
case 5:cout<<"Talaba a'lo o'qiydi";break;  
}
```

Biz misolda xato kiritilgan n qiymatdan saqlanish uchun `while(1)` sikl kiritilgan. Agar $n > 0$ bo'lsa `Break` operatori siklni tuxtatadi va dastur bajarilishi davom etadi. Agar kiritilayotgan baholar chegarada yotmasa n ga 0 qiymat berilib darhol sikldan chiqiladi.

O'tish operatori GO TO.

O'tish operatorining ko'rinishi:

`Go to <identifikator>`. Bu operator identifikator bilan belgilangan operatorga o'tish kerakligini ko'rsatadi.

Misol uchun `goto A1;...;A1:y=5;`

Strukturali dasturlashda `Go to` operatoridan foydalanmaslik maslahat beriladi. Lekin ba'zi hollarda o'tish operatoridan foydalanish dasturlashni osonlashtiradi.

Misol uchun bir necha sikldan birdan chiqish kerak bo'lib qolganda, to'g'ridan-to'g'ri `break` operatorini qo'llab bo'lmaydi, chunki u faqat eng ichki sikldan chiqishga imkon beradi.

Quyidagi misolda n ta qatorga n tadan musbat son kiritiladi. Agar n yoki sonlardan biri manfiy bo'lsa, kiritish qaytariladi:

```
# include <iostream.h>
int n, I, j, k;
M1: Cout<<"\n n="; Cin>>n;
If (n<=0) { Cout<<"\n xato! n>0 bo'lishi kerak";
Go to M1; } ;
M: Cout<<"x sonlarni kiriting \n";
For (I=1; I<=10; I++) {Cout<<"\n I="<< i;
For (j=1 ; j<=10; j++) {Cin>> k;
if (k<=0) goto M;}
}
```

Bu masalani GOTO operatorisiz hal qilish uchun qo'shimcha o'zgaruvchi kiritish lozimdir.

```
# include <iostream.h>
int n, I, j, k;
```

```

while 1 {
    Cout<<“\n n=”; Cin>>n;
if (n>0) break;
    Cout<<“\n hatto! n>0 bo`lishi kerak”;
    };
int M=0;
    While M
{ M=0;
    Cout<<“x sonlarni kiriting \n”;
    For (I=1; I<=10; I++) {
If (M) break;
    Cout<< (“\n I=%, i);
    For (j=1 ;j<=10; j++) {Cin>> (“%f”, k);
if (k<=0) {M=1;break;}
    }
}

```

FOR TAKRORLASH OPERATORI.

For strukturasi sanovchi (counter) bilan bajariladigan takrorlashni bajaradi. Boshqa takrorlash bloklarida (while, do/while) takrorlash sonini control qilish uchun ham sanovchini qo'llasa bo'lardi, bu holda takrorlanish sonini oldindan bilsa bo'lardi, ham boshqa bir holatning vujudga kelish-kelmasligi orqali boshqarish mumkin edi. Ikkinchi holda ehtimol miqdori katta bo'ladi. Masalan qo'llanuvchi belgilangan sonni kiritmaguncha takrorlashni bajarish kerak bo'lsa biz while ni ifodalar-ni ishlatamiz. for da esa sanovchi ifodaning qiymati oshirilib (kamaytirilib) borilaveradi va chegaraviy qiymatni olganda takrorlanish tugatiladi. for ifodasidan keyingi bitta ifoda qaytariladi. Agar bir necha ifoda takrorlanishi kerak bo'lsa, ifodalar bloki {} qavs ichiga olinadi.

//Ekranda o'zgaruvching qiymatini yozuvchi dastur, for ni ishlatadi.

```
# include <iostream.h>
```

```
int main()
```

```
{
```



```
for (int i = 0; i < 5; i++){  
cout<< i << endl;  
}  
return (0);  
}
```

Ekkranda:

```
0  
1  
2  
3  
4
```

for strukturasi uch qismdan iboratdir. Ular nuqtali vergul bilan bir-biridan ajratiladi.for ning ko'rinishi:

```
for( 1. qism ; 2. qism ; 3. qism ){  
takror etiladigan blok}
```

1. qism - e'lon va initsalizatsiya.

2. qism - shartni tekshirish (o`zgaruvchini chegaraviy qiymat bilan solishtirish).

3.qism - o'zgaruvchining qiymatini bajarilish ketma-ketligi quyidagichadir:

1. qism bajariladi (faqat bir marta), keyin

2. qismdagi shart tekshiriladi va agar u true bo'lsa takrorlanish bloki ijro ko'radi

3. qismda o'zgaruvchilar o'zgartiriladi, keyin yana ikkinchi qismga

o'tiladi.for strukturamizni while struktura bilan almashtirib ko'raylik:

```
for (int i = 0; i < 10 ; i++)  
cout<< "Hello!"<<endl;
```

Ekkranga 10 marta Hello! so'zi bosib chiqariladi. i o'zgaruvchisi 0 dan 9 gacha o'zgaradi. i 10 ga teng bo'lganda esa i < 10 sharti noto'g'ri (**false**) bo'lib chiqadi va for strukturasi nihoyasiga yetadi. Buni while bilan yozsak:

```
int i = 0;
```

```

while ( i<10 ){
cout<< "Hello!" <<endl;
i++;
}

```

Endi for ni tashkil etuvchi uchta qismning har birini alohida ko'rib chiqsak. Birinchi qismda asosan takrorlashni boshqaradigan sanovchi (counter) o'zgaruvchilar e'lon qilinadi va ularga boshlang'ich qiymatlar beriladi (initsializatsiya). Yuqoridagi dastur misolida buni `int i = 0;` deb berganmiz. Ushbu qismda bir necha o'zgaruvchilarni e'lon qilishimiz mumkin, ular vergul bilan ajratiladi. Ayni shu kabi uchinchi qismda ham bir nechta o'zgaruvchilarning qiymatini o'zgartirishimiz mumkin. Undan tashqari birinchi qismda for dan oldin e'lon qilingan o'zgaruvchilarni qo'llasak bo'ladi.

Masalan:

```

int k = 10;
int l;
for (int m = 2, l = 0 ; k <= 30 ; k++, l++, ++m) {
cout<< k + m + l;
}

```

Albatta bu ancha sun'iy misol, lekin u bizga for ifodasining naqadar moslashuvchanligi ko'rsatadi. for ning qismlari tushrib qoldirilishi mumkin.

Masalan:

```

for(;;) {}

```

ifodasi cheksiz marta qaytariladi. Bu for dan chiqish uchun break operatorini beramiz. Yoki agar sanovchi sonni takrorlanish bloki ichida o'zgartirsak, for ning 3-qismi kerak emas. Misol:

```

for(int g = 0; g < 10; ){
cout<< g;
g++;
}

```

Yana qo'shimcha misollar beraylik.

```
for (int y = 100; y >= 0; y-=5){
```

```
...
```

```
ifoda(lar);
```

```
...
```

```
}
```

Bu yerda 100 dan 0 gacha 5 lik qadam bilan tushiladi.

```
for(int d = -30; d<=30; d++){
```

```
...
```

```
ifoda(lar);
```

```
...
```

```
}
```

60 marta qaytariladi. For strukurasi bilan dasturlarimizda yanada yaqinroq tanishamiz. Endi

1-qismda e'lon qilinadigan o'zgaruvchilarning xususiyati haqida bir og'iz aytib o'taylik. Standartga ko'ra bu qismda e'lon qilingan o'zgaruvchilarning qo'llanilish sohasi faqat o'sha for strukturasi bilan chegaralanadi. Ya'ni bitta blokda joylashgan for strukturalari mavjud bo'lsa, ular ayni ismli o'zgaruvchilarni qo'llay olmaydilar. Masalan quyidagilar xatodir:

```
for(int j = 0; j<20 ; j++){...}
```

```
...
```

```
for(int j = 1; j<10 ; j++){...} //hato!
```

j o'zgaruvchisi birinchi for da e'lon qilinib bo'lindi. Ikkinchi for da ishlatish mumkin emas. Bu masalani yechish uchun ikki xil yo'l tutish mumkin.

Birinchisi bitta blokda berilgan for larning har birida farqli o'zgaruvchilarni qo'llashdir. Ikkinchi yo'l for lar guruhidan oldin sanovchi vazifasini bajaruvchi bir o'zgaruvchini e'lon qilishdir. Va for larda bu o'zgaruvchiga faqat kerakli boshlang'ich qiymat beriladi xolos.

for ning ko'rinishlaridan biri bo'sh tanali for dir.

```
for(int i = 0 ; i < 1000 ; i++);
```

Buning yordamida biz dastur ishlashini sekinlashtirishimiz mumkin.

Switch operatori.

`if-else-if` yordami bilan bir necha shartni test qilishimiz mumkin. Lekin bunday yozuv nisbatan o'qishga qiyin va ko'rinishi qo'pol bo'ladi. Agar shart ifoda butun son tipida bo'lsa yoki bu tipga keltirilishi mumkin bo'lsa, biz `switch` (tanlash) ifodalarini ishlata olamiz.

`switch` strukturasi bir necha `case` etiketlaridan (label) va majburiy bo'lmagan `default` etiketidan iboratdir. Etiket bu bir nomdir. U dasturnig bir nuqtasidaga qo'yiladi. Programmaning boshqa yeridan ushbu etiketga o'tishni bajarish mumkin. O'tish yoki sakrash `goto` bilan amalga oshiriladi, `switch` blokida ham qo'llaniladi.

5 lik sistemadagi bahoni so'zlik bahoga o'tqizadigan blokni yozaylik.

```
int baho;  
baho = 4;  
switch (baho) {  
case 5: cout << "A'lo";  
break;  
case 4: cout << "Yahshi";  
break;  
case 3: cout << "Qoniqarli";  
break;  
case 2:  
case 1: cout << "A'lo";  
break;  
default: cout << "Baho hat o kiritildi!";  
break;  
}
```

`Switch` ga kirgan o'zgaruvchi (yuqorigi misolda `baho`) har bir `case` etiketlarining qiymatlari bilan solishtirilib chiqiladi. Solishtirish yuqoridan pastga bajariladi. Shartdagi qiymat etiketdagi qiymat bilan teng bo'lib chiqqanda ushbu

`case` ga tegishli ifoda yoki ifodalar bloki bajariladi. So'ng `break` sakrash buyrug'i bilan `switch` ning tanasidan chiqiladi. Agar `break` qo'yilmasa, keyingi etiketlar qiymatlari bilan solishtirish bajarilmasdan ularga tegishli ifodalar ijro ko'raveradi. Bu albatta biz istamaydigan narsa. default etiketi majburiy emas. Lekin shart chegaradan tashqarida bo'lgan qiymatda ega bo'lgan hollarni diagnostika qilish uchun kerak bo'ladi. `case` va etiket orasida bo'sh joy qoldirish shartdir. Chunki, masalan, `case 4: ni case4:` deb yozish oddiy etiketni vujudga keltiradi, bunda sharti test qilinayotgan ifoda 4 bilan solishtirilmay o'tiladi.

Do while takrorlash operatori.

`Do while` ifodasi `while` strukturasi bilan o'xshashdir. Bitta farqi shundaki `while` da shart boshiga tekshiriladi. `Do while` da esa takrorlanish tanasi eng kamida bir marta ijro ko'radi va shart strukturaning so'ngida test qilinadi. Shart true bo'lsa blok yana takrorlanadi. Shart false bo'lsa `do while` ifodasidan chiqiladi. Agar `do while` ichida qaytarilishi kerak bo'lgan ifoda bir dona bo'lsa `{ }` qavslarning keragi yo'qdir. Quyidagicha bo'ladi:

```
do
```

```
ifoda;
```

```
while (shart);
```

Lekin `{ }` qavslarning yo'qligi dasturchini adashtirishi mumkin. Chunki qavssiz `do while` oddiy `while` ning boshlanishiga o'xshaydi. Buni oldini olish uchun `{ }` qavslarni har doim qo'yishni tavsiya etamiz.

```
int k = 1;
```

```
do {
```

```
    k = k * 5;
```

```
} while ( !(k>1000) );
```

Bu blokda 1000 dan kichik yoki teng bo'lgan eng katta 5 ga karrali son topilmoqda. `while` shartini ozroq o'zgartirib berdik, `!` (not - inkor) operatorining ishlashini misolda ko'rsatish uchun. Agar oddiy qilib yozadigan

bo'lsak, while shartining ko'rinishi bunday bo'lardi: while (k<=1000); Cheksiz takrorlanishni oldini olish uchun shart ifodasining ko'rinishiga katta e'tibor berish kerak. Bir nuqtaga kelib shart true dan false qiymatiga o'tishi shart.

Mantiqiy operatorlari.

Operator

Belgi

Misol

VA

&&

1ifoda && 2ifoda

YOKI

||

1ifoda||2ifoda

INKOR

!

!ifoda

Mantiqiy ko'paytirish operatori.

Mantiqiy ko'paytirish operatori ikkita ifodani hisoblaydi, agar ikkala ifoda true qiyma tqaytarsa VA operatori ham true qiymat qaytardi. Agarda sizning qorningiz ochligi rost bo'lsa VA sizda pul borligi ham rost bo'lsa siz supermarketga borishingiz va u yerdan o'zingizga tushlik qilish uchun biror bir narsa xarid qilishingiz mumkin. Yoki yana bir misol

masalan

if(x==5)&&(y==5)

mantiqiy ifodasi agarda x va y o'zgaruvchilarini ikkalasining ham qiymatlari 5 ga teng bo'lsagina true qiymat qaytaradi. Bu ifoda agarda o'zgaruvchilardan birortasi 5 ga teng bo'lmagan qiymat qabul qilsa false qiymatini qaytaradi. Mantiqiy ko'paytirish operatori faqatgina o'zining ikkala ifodasi ham rost bo'lsagina true qiymat qaytaradi.

Mantiqiy ko'paytirish operatori && belgi orqali belgilanadi.

Mantiqiy qo'shish operatori

Mantiqiy qo'shish operatori ham ikkita ifoda orqali hisoblanadi. Agarda ulardan birortasi rost bo'lsa mantiqiy qo'shish operatori true qiymat qaytaradi. Agarda sizda pul YOKI kredit kartochkasi bo'lsa, siz schyotni to'lay olasiz. Bu holda ikkita shartning birdaniga bajarilishi: pulga ham va kredit kartochkasiga ham ega bo'lishingiz shart emas. Sizga ulardan birini bajarilishi yetarli. Bu operatorga oid yana bir misolni qaraymiz.

Masalan,

```
if(x==5)||(y==5)
```

ifodasi yoki x o'zgaruvchi qiymati, yoki u o'zgaruvchi qiymati, yoki ikkala o'zgaruvchining qiymati ham 5 ga teng bo'lsa rost qiymat qaytaradi.

Mantiqiy inkor operatori

Mantiqiy inkor operatori tekshirilayotgan ifoda yolg'on bo'lsa true qiymat qaytaradi. Agarda tekshirilayotgan ifoda rost bo'lsa inkor operatori falseqiymat qaytaradi.

Masalan,

```
(if!(x==5))
```

ifodasining qiymati, agarda x o'zgaruvchisi 5 ga teng bo'lmasa trueqiymat qaytaradi. Bu ifodani boshqacha ham yozish mumkin:

```
if(x!=5)
```

1.2. C++ DASTURLASH TILIDA MASSIVLAR.

C++ funksiya va obyektning juda boy kutubxonasiga ega. Yani C++ da dasturlashni o'rganish ikki qismga bo'linadi. Birinchisi bu C++ ni o'zini o'rganish, ikkinchisi esa C++ ning standart kutubxonasidagi tayyor obyekt funksiyalarni qo'llashni o'rganishdir.

Massiv – bu bir toifali, chekli qiymatlarning tartiblangan to'plamidir. Massivlarga misol qilib matematika kursidan ma'lum bo'lgan vektorlar, matritsalarini ko'rsatish mumkin.

Massivlar odatda bir o'lchovli va ko'p o'lchovli turlarga bo'linadi.

Massiv bir o'lchamli deyiladi, agar uning elementiga bir indeks orqali murojat qilish mumkin bo'lsa.

C++ dasturlash tillaridagi massiv elementlar indekslari har doim noldan boshlanadi (birdan emas). Bizga char tipidagi m nomli massiv berilgan bo'lsin. Va u 3 ta elementdan tashkil topgan bo'lsin.

m[0] → -9;

m[1] → 15;

m[2] → 3;

Demak, elementga murojat qilish uchun massiv nomi va [] qavslar ichida element indeksi yoziladi.

Bu yerda birinchi element qiymati -9, ikkinchi element – 1 nomerli indeksda -15 qiymati bor ekan. Oxirgi element indeksi n-1 bo'ladi (n-massiv elementlari soni). [] qavs ichidagi indeks butun son yoki butun songa olib keluvchi ifoda bo'lmog'i lozim. Masalan:

```
int n=6, m=4;
```

```
L[n-m]=33; // L[2]=33;
```

```
Cout<<m[2]; // ekranda : 3;
```

Massiv elementlariga murojat qilish oddiy o'zgaruvchilarga murojat qilishdan biroz farq qiladi. Massiv elementiga murojat qilish indeksi orqali bo'ladi.

```
a[1] = 5; a massivning indeksi 1 bo'lgan elementi 5 qiymat o'zlashtirilsin.
```

```
cin>>a[2]; a massivning elementi 2 bo'lgan elementi kiritilsin;
```

```
cout<<a[3]; a massivning indeksi 3 bo'lgan elementi ekranga chiqarilsin;
```

Bir o'lchamli massivlarni e'lon quyidagicha bo'ladi :

```
<Toifa> <massiv_nomi> [elementlar_soni] = { boshlang'ich qiymatlar };
```

```
1)float a[5], 2) int b[6], 3) boll c[7];
```


1) a elementi haqiqiy sondan iborat bo`lgan , 4 ta elementdan tashkil topgan massiv. Indeksleri esa 0 dan 3 gacha bo`lgan sonlar.

Float a[5]					
Massiv elementlari	a [0]	a [1]	a [2]	a [3]	a [4]
Qiymati	4	11	-8	12	122

2) b elementi butun sondan iborat bo`lgan , 6 ta elementdan tashkil topgan massiv. Indeksleri esa 0 dan 5 gacha bo`lgan sonlar.

int a[6]						
Massiv elementlari	a [0]	a [1]	a [2]	a [3]	a [4]	a [5]
Qiymati	2	99	-5	28	112	54

3) c elementlari mantiqiy qiymatlardan (true, false) iborat bo`lgan 7 ta elementdan tashkil topgan massiv. Indeksleri esa 0 dan 6 gacha bo`lgan sonlardir.

Massivni e`lon qilishda uning elementlariga boshlang`ich qiymat berish mumkin va buning bir necha usuli mavjud.

1) O`lchami ko`ratilgan massivni to`liq initsializatsiyalash.

```
int k[5] = {2, 15 , -9, 45, 3 , 7};
```

Bu yerda 5 ta elementdan iborat k massivi e`lon qilingan va massivning barcha elementlariga boshlang`ich qiymat berilgan.

2) O`lchami ko`rsatilgan massivni to`liqmas to`liqmas initsializatsiyalash.

```
int k[5] = {2, 15, -9 };
```

Bu yerda 5 ta elementdan iborat bo'lgan k massivi e'lon qilingan va dastlabki 3 ta elementlariga boshlang'ich qiymat berilgan.

3) O'lchami ko'rsatilmagan massivni to'liq initsializatsiyalash.

```
int k[] = {2, 15, -9, 45, 3, 7};
```

Shuni takidlash lozimki, agar massiv o'lchami ko'rsatilmasa, uni to'liq initsializatsiyalash shart. Bu xolda massiv o'lchami kompilyatsiya jarayonida massiv elementlar soniga qarab aniqlanadi. Bu yerda massiv o'lchami 5 ga teng.

4) O'lchami ko'rsatilgan massivning barcha elementlariga boshlang'ich qiymat 0 berish

```
int k[5] = {0};
```

Masalan:

O'lchami ko'rsatilgan massivning barcha elementlariga boshlang'ich qiymat 0 berish.

```
#include<iostream.h>
```

```
int main ()
```

```
{
```

```
    int k[5]={0}; // massivning barcha elementlariga 0 qiymat berish.
```


```
    for (int i=0; i<5; i++ )
```

```
        cout<<"k["<<i<<"]="<<k[i]<<endl;
```

```
    return 0;
```

```
}
```

Ekkranga quyidagicha natija chiqadi:



```
C:\Users\Zahriddin\Desktop\dgdgf.exe
k[0]=0
k[1]=0
k[2]=0
k[3]=0
k[4]=0
Для продолжения нажмите любую клавишу . . .
```

Ko`p o`lchovli statik massivlar

C++ tilida massivlar elementining turiga cheklovlar qo`yilmaydi , lekin bu turlar chekli o`lchamdagi obyektlarning turi bo`lishi kerak.

CHunki kompiyator massivning hotiradan qancha joy (bayt) egallashini xisoblay olish kerak. Xususan , massiv komponentasi massiv bo`lish mumkin

(“vektorlar - vektori”) , natijada **matritsa** deb nomlanuvchi ikki o`lchamli massiv xosil bo`ladi.

Agar matritsaning elementi xam vektor bo`lsa , uch o`lchamli massivlar - **kub** xosil bo`ladi. Shu yo`l bilan yechilayotgan masalaga bog`liq ravishda ixtiyoriy o`lchamdagi massivlarni yaratish mumkin.

Ikki o`lchamli massivda birinchi indeks satrlar sonini , ikkinchisi esa ustunlar sonini bildiradi.

Birinchi satrning dastlabki elementi a_{10} – a biri nol element deb o`qiladi .
a o`n deyilmaydi.

M ta satr n ta ustunga ega bo`lgan massivga (mxn)o`lchamli massiv deyiladi. Agar $m=n$ (satrlar va ustunlar soni teng) bo`lsa **kvadrat massiv** deyiladi.

Ikki o`lchamli massivning sintaksi quyidagi ko`rinishda bo`ladi:

`<tur><nom>[<uzunlik>][<uzunlik>]`

Masalan, 10X20 o`lchamli xaqiqiy sonlar massivning e`loni:

`Float a[10][20];`

E`lon qilingan a matritsa ko`rinishi quyidagicha ko`rinishda bo`ladi.

J

$a_{[0]}: (a_{[0][0]}, a_{[0][2]}, \dots, \dots a_{[0][18]}, a_{[0][19]},)$

$a_{[1]}: (a_{[1][0]}, a_{[1][1]}, \dots, \dots a_{[1][18]}, a_{[1][19]},)$

....

i $a_{[i]}: (\dots, \dots , \dots , \dots a_{[i][j]} \dots , \dots \dots)$

....

$a_{[9]}: (a_{[9][0]}, a_{[9][1]}, \dots, \dots a_{[9][18]}, a_{[9][19]},.)$

Ikki o`lchamli massivning hotirada joylashuvi


Endi adres nuqtayi - nazaridan ko`p o`lchamli massiv elementlariga murojat qilishni ko`raylik. Quyidagi elonlar berilgan bo`lsin:

Int a[3][2];

Float b[2][2][2];

Birinchi elonda ikki o'lchamli massiv, yani 2 ta satr va 3 ustundan iborat matritsa e'lon qilingan, ikkinchisida uch o'lchamli - 3 ta 2x2 matritsadan iborat bo'lgan massiv e'lon qilingan. Uning elementlariga murojat sxemasi:

Adres ko'rsatkichlar massivi




Ikki o'lchamli massiv elementlariga murojat;

Bu yerda $a[i]$ ko'rsatkichida i -chi satrning boshlang'ich adresi joylashadi, massiv elementiga $a[i][j]$ ko'rinishidagi asosiy murojatdan tashqari vositali murojat qilish mumkin: $*(*(a+i)+j)$ yoki $*(a[i]+j)$.

Uch o'lchamli massivning xotirada tashkil bo'lishi:

Adres ko'rsatkichlar massivi



Massiv elementlariga murojat qilish uchun nomdan keyin kvadrat qavsda xar bir o`lcham uchun indeks yozilishi kerak , masalan `b[i][j][k]`. Bu elementga vositali murojat xam qilish mumkin va uning variantlari:

`*(*(b+i)+j)+k` yoki `*(*(b[i]+j)+k)` yoki `*(b[i][j]+k)`;

Ko`p o`lchovli massivlarni initsializatsiyalash

```
Int a[2][3] = {2, 6, 8, 7, 12, 5};
```

```
Int b[3][3] = {{2, 6, 8}, {7, 12, 5}, {20, 21, 22}}
```

Birinchi operatorida boshlang`ich qiymatlar ketma – ket yozilgan, Ikkinchi operatorida qiymatlar guruxlangan.

1.3. C++ DASTURLASH TILIGA SATRLAR.

Satrlar bilan ishlashda unda birorta belgini izlash uchun «string.h» kutubxonasida bir qator standart funksiyalar mavjud.

Birorta belgini berilgan satrda bor yoki yo`qligini aniqlab beruvchi `strchr()` funksiyasining prototipi

```
char* strchr(const char* string, int c);
```

ko`rinishida bo`lib, u `s` belginining `string` satrida izlaydi. Agar izlash muvofaqiyatli bo`lsa, funksiya shu belgining satrdagi o`rnini (adresini) funksiya natijasi sifatida qaytaradi, aks holda, ya'ni belgi satrda uchramasa funksiya `NULL` qiymatini qaytaradi. Belgini izlash satr boshidan boshlanadi.

Quyida keltirilgan programma bo`lagi belgini satrdan izlash bilan bog`liq.

```
char satr[]="0123456789";
```

```
char* pSatr;
```

```
pSatr=strchr(satr,'6');
```

Programma ishlashi natijasida `pSatr` ko`rsatkichi `satr` satrining '6' belgisi joylashgan o`rni adresini ko`rsatadi.

`strchr()` funksiyasi berilgan belgini (`s`) berilgan satr (`string`) oxiridan boshlab izlaydi. Agar izlash muvaffaqiyatli bo`lsa, belgini satrga oxirgi kirishining o`rnini qaytaradi, aks holda `NULL`.

Misol uchun

```
char satr[]="0123456789101112";
```

```
char* pSatr;
```

```
pSatr=strchr(satr,'0');
```

ammallarini bajarilishida pSatr ko'rsatkichi satr satrining "01112" satr qismining boshlanishiga ko'rsatadi.

strspn() funksiyasi ikkita satrni belgilarni solishtiradi. Funksiya quyidagi

```
size_t strspn(const char* str1, const char* str2);
```

ko'rinishga ega bo'lib, u str1 satrdagi str2 satrga kiruvchi birorta belgini izlaydi va agar bunday element topilsa, uning indeksi funksiya qiymati sifatida qaytariladi, aks holda funksiya satr uzunligidan bitta ortiq qiymatni qaytaradi.

Misol:

```
char satr1[]="0123ab6789012345678";
```

```
char satr2[]="a32156789012345678";
```

```
int farqli_belgi;
```

```
farqli_belgi=strspn(satr1,satr2);
```

```
cout<<"Satr1 satridagi Satr2 satrga kirmaydigan\birinchi belgi indeksi =  
"<<farqli_belgi;
```

```
cout<<"va u "<<satr1[farqli_belgi]<<" belgisi.";
```

amallar bajarilishi natijasida ekranga

```
Satrlardagi mos tushmagan belgi indeksi = 5
```

satri chop etiladi.

strcspn() funksiyasining prototipi

```
size_t strcspn(const char* str1, const char* str2);
```

ko'rinishida bo'lib, u str1 va str2 satrlarni solishtiradi va str1 satrining str2 satriga kirgan birinchi belgani indeksini qaytaradi.

Masalan.

```
char satr[]="Birinchi satr";
```

```
int index;
```

```
index=strcspn(satr,"sanoq tizimi");
```

amallari bajarilgandan keyin index o'zgaruvchisi 1 qiymatini qabul qiladi, chunki birinchi satrning birinchi o'rindagi belgisi ikkinchi satrda uchraydi.

strpbrk() funksiyasining prototipi

```
char strpbrk(const char* str1, const char* str2);
```

ko'rinishga ega bo'lib, str1 satrdagi str2 satrga kiruvchi birorta belgini izlaydi va agar bunday element topilsa, uning adresi funksiya qiymati sifatida qaytariladi, aks holda funksiya NULL qiymati qaytaradi. Quyidagi misol funksiyani qanday ishlashini ko'rsatadi.

```
char satr1[]="0123456789ABCDEF";
```

```
char satr2[]="ZXYabcdefABC";
```

```
char* element;
```

```
element = strpbrk(satr1,satr2);
```

```
cout<<element<<'\n';
```

Programma ishlashi natijasida ekranga str1 satrining

ABCDEF

satr ostisi chop etiladi.

C++ da satrlar bilan ishlashni qulaylashtirish uchun string sinfi kiritilgan. string sinfi satrlarida satr oxirini '\0' belgisi belgilamaydi.

Standart kutubxonadagi string sinfidan foydalanish uchun <string> sarlavha faylini dasturga qo'shish kerak.

C++ tilida kompilyatorlarda <cstring.h> yoki <bstring.h> sarlavha faylini qo'shish kerak bo'ladi. Oddiy usuldagi satrlar bilan ishlash uchun esa, <string.h> sarlavha fayli qo'shiladi.

Eng afzali, o'zingiz ishlatayotgan kompilyator bilan yaxshilab tanishib chiqing. Satrlar bilan ishlovchi asosiy funksiyalar bilan tanishib chiqamiz.

Satr xususiyatlarini aniqlash uchun quyidagi funksiyalardan foydalanish mumkin:

```
unsigned int size() const; // satr o'lchami
```

```
unsigned int length() const; // satr elementlar soni
```



```
unsigned int max_size() const; // satrning maksimal uzunligi
```

```
unsigned int capacity() const; // satr egallagan xotira hajmi
```

```
bool empty() const; // satrning bo'shligini aniqlash
```

Satrning uzunligini aniqlash uchun `length()` yoki `size()` funksiyalaridan foydalanish mumkin.

Misol: Satr uzunligini aniqlash dasturi

```
#include <iostream.h>
```

```
#include <string>
```

```
int main()
```

```
{
```

```
string s;
```

```
cout << "Satr kiriting" << endl;
```

```
getline(cin, s);
```

```
cout << "Siz kiritgan satr " << s.length() << " ta belgidan iborat";
```

```
cout << "Siz kiritgan satr " << s.size() << " ta belgidan iborat";
```

```
system ("pause");
```

```
return 0;
```

```
}
```

Belgilar. Belgili o'zgaruvchilar odatda bir bayt joyini egallaydi va bu 256 xil belgini saqlash uchun etarlidir. Char tipi qiymatlarini 0..255 sonlar to'plamiga yoki ASCII belgilar to'plamiga interpretatsiya qilish mumkin. `<string.h>` C uslubida satrlar bilan ishlovchi funksiyalar e'loni berilgan.

Maxsus belgilar.

C++ kompilyatori tekstlarni formatlovchi bir nechta maxsus belgilardan tashkil topgan. (Ulardan eng ko‘p tarqalgani 3.2. - jadvalda keltirilgan). Bu belgilarni dasturda ishlatishda «teskari slesh»dan foydalanamiz. Teskari sleshdan keyin boshqaruvchi belgi yoziladi. Masalan, tabulyasiya belgini dasturga qo‘yish uchun quyidagicha yozuvni yozish kerak.

```
Char tab = '\t';
```

Bu misoldagi char tipidagi o‘zgaruvchi \t qiymatini qabul qiladi. Maxsus belgilar axborotlarni ekranga, faylga va boshqa chiqarish qurilmalariga chiqarishda formatlash uchun qo‘llaniladi.

C++ da belgili ma’lumotlar uchun char turi qabul qilingan. Belgili axborotni taqdim etishda belgilar, simvulli o‘zgaruvchilar va matniy konstantalar qabul qilingan. C++ da satrlar (string) qo‘shirnoqlar (") orasida bo‘ladi. Bitta harfli literalar esa bitta tirnoq - apostrof (‘) ichiga olinadi. Misol uchun: 'A', '\$'. Bitta harf yoki belgini qo‘shirnoq ichiga olsa u satr kabi qabul qilinadi.

Misollar:

```
sonst char c='c'; //belgi - bir baytni egallaydi, uning qiymati o‘zgarmaydi.
```

```
char a,b; //belgili o‘zgaruvchilar, bir baytdan joy egallaydi, qiymatlari o‘zgaradi.
```

```
const char *s= "\n satrining misoli"; //matniy konstanta
```

C++ dagi satr - bu nul-belgi - '\0' (nul-terminator) - bilan tugallanuvchi belgilar massivi. Nul-terminatorning holatiga qarab satrning amaldagi uzunligi aniqlanadi. Bunday massivdagi elementlar soni, satr tasviriga qaraganda, bittaga ko‘p.

Qiymat berish operatori yordamida satrga qiymat berish mumkin emas. Satrni massivga yoki kiritish paytida yoki nomlantirish yordamida joylashtirish mumkin.

Misol:

```
void main()
```

```

{
    char s1[10]="string1";
    int k=sizeof (s1);
    cout<<s1<<"\t"<<k<<endl;
    char s2[]="string2";
    k=sizeof(s2);
